

KASB-HUNAR MAKTAB TA'LIMIDA TARIX FANINI O'QITISH METODLARINI TOIFALASH

Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Davidova Gulnoza Mirzakarimovna

Annotatsiya: *Kasb-hunar maktab ta'limida tarix fanini o'qitish metodlarini toifalash haqida ma'lumotlar berilgan*

Kalit so'zlar: *Toifalash, o'qitish metodi, ta'lim texnologiyasi.*

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganidek "Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman degan so'zlaridan ham bunga yana bir karra misoldir.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish va ular orqali ta'lim samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

So'ngi yillarda mamalakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga bo'lgan qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim va tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Tahlillar natijasida tarix ilmini o'tmishdan to hozirgi kungacha juda ko'p turli maqsadlarda ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Tarix ayniqsa o'tmishga qiziqish, o'yin-kulgi, axloqiy va diniy ta'lim, siyosiy va mafkuraviy qiziqishlarni oshirish uchun ishlatilgan. Tarix qiziqarli soha sifatida ko'rilgan va odamlarning e'tiborini jalb qilish uchun ishlatilgan. Ayniqsa, tarixiy suhbatlar har bir davrda odamlarning e'tiborini tortuvchi targ'ibot vositasi sifatida foydalanilgan.

Tarix, shuningdek, axloqiy va diniy bilimlarni va munosabatlarni yangi avlodlarga etkazish vositasi hisoblangan. Ushbu maqsadga erishish uchun, ayniqsa axloqiy va diniy matnlar ishlatilgan. Bundan tashqari, tarix bugungi kun kabi har bir davrda mafkuraviy va siyosiy maqsadlar uchun xizmat qilgan. Har bir davrda hokimiyatga kelish huquqini qonun tarafidan isbotlash uchun tarixiy manbalardan foydalanilgan. Shu bilan birga, tarix shaxsiyatni rivojlantirishning kuchli vositasi sifatida qaralgan. O'tmishda odamlarning xatti-harakatlarini tushunishga va izohlashga harakat qiladigan ilm-fan sohasi bo'lishdan tashqari, maktab va oliygozlarda dars sifatida ham o'qitilgan.

XIX asrga kelib tarix fani vujudga kelgan majburiy va zamonaviy o'quv muassasalarining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lgan. Tarix bu xalqning umumiy xotirasi, o'tmish xotirasi, ammo o'tmish xotirasi endi so'zning ma'nosida o'tmish emas. Bu hozirgi zamon me'yorlariga muvofiq qayta tiklanadigan va qayta tiklanadigan, hozirgi zamonda odamlar hayotining qadriyatlarini va ideallariga yo'naltirilgan o'tmishdir, chunki o'tmish biz uchun mavjud va shu tufayli rahmat. K. Jaspers bu g'oyani o'zicha ifoda etgan: "tarix biz bilan bevosita bog'liq va bizni qiziqtiradigan hamma narsa, shu bilan inson uchun hozirgi zamon muammosidir.

Taniqli metodist A.I.Strajev aytganidek: «Tarix o'qitish metodi tarixiy material bo'yicha qilinadigan ana shu mantiqiy amaliyotlardan tashkil topadi». O'qitish metodlarini ba'zan o'quvchilarning bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klassifikatsiyalash tavsiya qilinadi. Bu tarzda ajratish o'qitish metodlaridan ko'ra, ko'proq o'qitishning umumiy xarakteriga taalluqlidir. 60- yillarda tarix o'qitish metodlari va ularni klassifikatsiyalash turlicha hal qilindi. Metodist A.I.Strajev «Tarix o'qitishning tashkil etilishi, metodlari va vositalari tarix fanining ma'lum ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi»— deydi. Biroq, u ham o'qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o'zini o'rganish metodidan iborat qilib qo'yib, masalada noaniqlikka yo'l qo'yadi. A.I.Strajev quyidagi o'qitish metodlarini tavsiya qiladi: [2]

- tarixiy faktlarni o'rganish metodlari;
- xronologiyani o'rganish metodlari;
- mahalliy tarixiy voqealarni o'rganish metodlari;
- asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari;
- sabab-natija aloqalarni o'rganish metodlari;
- tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari.

Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablarida Interfaol usullardan foydalanishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi vositalardan foydalanish mumkin:

- kasbiy didaktik o'yinlar;
- rolli o'yinlar;
- kasbiy kompyuterli o'yinlar;
- interfaol o'quv adabiyotlari;
- axborot kommunikatsiya;
- metodik ko'rgazma.

Kasb-hunar maktablarida bo'sh o'zlashtirish o'quvchilar uchun interfaol usullardan foydalanish darsni jonli tashkil etishni ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, avvalgi bilimlar va yangi axborotlar o'rtasida bog'lanish hosil qilib, berilgan materialni to'la tushunishga zamin yaratadi.

Interfaol usuldagi o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o'yinlar hujjatlar bilan ishlash, ijodiy ishlash kabi metodlardan foydalanish mumkin. Bu, ayniqsa, muayyan iqtidor sohibi bo'lgan

o'quvchilarning qirralarini yaxshiroq ochishga, uning ijodkorligini rivojlantirishga imkon beradi.

Bu usullarning uziga xosligi shundayki, ular faqat pedagog va o'qituvchi-o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik xamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

-o'qituvchi-o'quvchilarning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

- o'qituvchi -o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'qituvchi -o'quvchining bilimga bulgan qiziqishini mustaqil ravishda xar bir masalaga ijodiy yondashgan xolda kuchaytirishi;

- pedagog va o'qituvchi -o'quvchining xamisha xamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish albatta yuqori samaradorlikga erishilishiga sabab bo'ladi.

Barcha ta'lim tizimida dars jarayonlarida SWOT tahlil, Venn diagrammasi, Aqliy xujum, Blitz so'rov, klaster metodlaridan ko'p foydalaniladi. Kasb-hunar maktablarida esa ko'proq Aqliy xujum, Blitz so'rov, Kichik guruhlarda ishlash, FSMU metodi, T-Jadvali, klaster metodlari dars mashg'ulotlarida qo'llanilib keladi. Misol uchun FSMU metodi mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo'yicha o'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko'rsatishlari, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirishlari va pirovardida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o'rgatish va mashq qildirish metodidir.

Ayniqsa bu FSMU metodi imkoniyati cheklangan o'quvchilarni tarix fanini mavzuni yoritishga yordam beradi.

FSMU metodining umumiy sxemasi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.


Bu metod o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil etishga va o'zlashtirish darajasini aniqlashga, baholashga o'rgatadi.

FSMU metodini tarix dars mashg'ulotida qo'llanilishi.

Savol: O'zbek xalqining rivojlanish bosqichlariga o'z fikringizni bildiring

Bu topshiriqni bajarishda berilgan jadvalga har bir o'quvchi avval o'zining fikrini yozishi, nima uchun shunday fikrga kelganligini sabablarini izohlashi, keltirilgan sabablarni misollar bilan mustahkamlashi va shunday keyin umumiy xulosasini bayon etishi lozim. Bu jarayonda o'quvchi tomonidan bildirilgan har bir fikr misollar bilan asoslanishi kerak.

O'zbek xalqining no'vjilash bosqichlarga o'z fikringizni bildiring	
(F) Fikringizni bayon qiling.	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.	
(M) Ko'rsatgan sababingizni iboratlovchi misol keltiring.	
(U) Fikringizni umumlashtiring.	



Klasterni tuzish qoidasi:

1. Aqlga kelgan barcha fikrni yozish.
2. G'oyaning sifatini muhokama etmaslik.
3. O'rfog'atlik va hushqara jihatlarga e'tibor bermaslik.

4. Ajratilgan vaqt tugamaguncha yozuvni to'xtatmaslik.
5. G'oyalarni soti va o'zaro aloqadorligiga e'tibor berish.

BBB-usuli (B-BX-BO" jadvalini to'ldiring)


Nr	Mavzu savollari	Bilgiman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.	Ek shahar davlatlarning paydo bo'lish sabablarini nima?			
2.	O'rta Osiyoning fojarlar va yunonlar davridagi davlatchilik taraqqiyoti qanday bo'lgan?			
3.	Yunon-Blaqriya, Qarg', Devon. Davlat va jamiyat tuzilishining o'ziga xosligi, xo'jaligi, madaniyati, davlat funktsiyalari qanday bo'lgan?			

BBB texnikasining qoidasi

1. Inset texnikasidan foydalangan holda matn o'qib chiqing.
2. Olingan ma'lumotlarni individual sohalarga ajrating. Qalam bilan qo'yilgan belgilar asosida BBB jadvalni to'ldiring.

Baliq skeleti usuli

XVI-XVII asrlarda Xiva xonligining viloyatlarga bo'lib idora etilishi



KONTSEPTUAL JADVAL

	TAQQOSLANG		
	ICHKI SIYOSAT	TASHQI SIYOSAT	MAYDONI
Amir Temur davlatida ichki va tashqi siyosati			
Amir Temur davrida davlatchilik tizimidagi o'rganishlar			

«Grafik tashkilotchilar»

Guruhi uchta guruhchaga bo'lib, jadvalni to'ldirish taklif etildi. Jadval grafalarga har bir savolga aloqador temun va tushunchalar kiritildi.

T.	Savol	Mohiyat	Mazmun	oqibat
1.				
2.				
3.				

VEN diagrammasi


1. Aqlga kelgan barcha fikrni yozish.
2. G'oyaning sifatini muhokama etmaslik.
3. Orfografik va boshqa jihatlarga e'tibor bermaslik.
4. Ajratilgan vaqt tugamaguncha yozuvni to'xtatmaslik.
5. G'oyalar soni va o'zaro aloqadorligiga e'tibor berish.

Qo'qon va Xiva xonliklaridagi boshqaruv tizimi.
Ijtimoiy xo'jalik hayot va madaniyat



Bu usulda uchta diagramma mavjud bo'lib, ular yordamida o'rganilayotgan muammolarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Talabalar birinchi diagramma ichiga qo'yilgan birinchi muammoning o'ziga xos tomonlarini yoritib beradilar. O'rtadagi diagrammada har ikki muammoning biri-biriga o'xshash va farqli tomonlari ko'rsatiladi. Uchinchi diagrammada esa qo'yilgan ikkinchi muammoning o'ziga xosliklari yoritiladi. Metodika yordamida talabalarda umumlashtirish, taqqoslash operatsiyalari rivojlantiriladi.

1. Yunon-Baqtriya, Qang', Davon. Davlat va jamiyat tuzimining o'ziga xosligi, xo'jaligi, madaniyati, davlat funksiyalari qanday bo'lgan?



Bu usulda uchta diagramma mavjud bo'lib, ular yordamida o'rganilayotgan muammolarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Talabalar birinchi diagramma ichiga qo'yilgan birinchi muammoning o'ziga xos tomonlarini yoritib beradilar. O'rtadagi diagrammada har ikki muammoning biri-biriga o'xshash va farqli tomonlari ko'rsatiladi. Uchinchi diagrammada esa qo'yilgan ikkinchi muammoning o'ziga xosliklari yoritiladi. Metodika yordamida talabalarda umumlashtirish, taqqoslash operatsiyalari rivojlantiriladi.

“Tarix” darslarida ko‘rgazmalilik, nazariya va amaliyotning birligi prinsipidan foydalanish dars samaradorligining yuqori bo‘lishi bilan bir qatorda’quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qituvchi ko‘rgazmali qurollardan foydalanmay mavzuni tushuntirishda ko‘p vaqt yo‘qotadi va mavzuga qo‘yilgan ta‘limiy maqsadiga to‘liq erisha olmaydi. Ko‘rgazmali qurollar asosan o‘quvchilarning dunyoqarashi va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda foydalaniladi. Tarix darslarida didaktik ko‘rgazmali vosita, ko‘rgazmali qurol va ekskursiya obekti sifatida quyidagi manbalardan foydalanish mumkin:

-tarixiy xujjatli filmlar, tarixiy voqealarni aks ettiruvchi teleko‘rsatuv va epizodlar, kinoxujjatlar, diafilmlar, kinofilmlar, o‘quv diapozitivlar, videoxujjatlar;

-tarixiy obraz aks ettirilgan sur‘atlar, darslikdagi ilustrasiyalar, tarixiy asarlar, tarixiy portretlar, tarixiy voqea aks etgan karikaturalar, tarixiy roman va qissalar;

-tarixiy shaharlarning rasmi, me‘moriy yodgorliklar, me‘moriy ansambl, ramziy belgi va ramziy ahamiyatga ega tasvirlar, tarixiy-madaniy obidalar, tarixiy obidalarning ilk va bugungi kundagi ko‘rinishiga oid foto rasmlar, arxeologik ashyolarning maketi yoki foto rasmi, saroy maketlari (3D printeri yodamida ishlab chiqish imkoniyati mavjud) yoki fotosuratlari, suv inshootlari maketi;

Tarixdan guvohlik beruvchi arxeologik yodgorliklar, tarixiy topilmalar, tarixiy sur‘atlar tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jaloliddin Manguberdining jasorati, Sohibqiron Amir Temurning O‘zbekiston va jahon tarixida tutgan o‘rni haqidagi ma‘lumotlarni o‘quvchilar katta qiziqish bilan tinglaydilar. Davlat arboblari, mutafakkir va olimlar, xalq qaxramonlarining erishgan yutuqlari, ularning nutqlari va shiorlaridan namunalar keltirish o‘quvchilarda vatanparvarlik ruhining shakllanishiga omil bo‘ladi. Dars vaqtida kayfiyatni ko‘tarish va ishchanlikni oshirish maqsadida vatanparvarlik g‘oyalari yo‘g‘rilgan tarixiy mazmun-mohiyatga ega she‘r, qo‘shiqlar va shiorlardan foydalanish ham mumkin.

Misol tariqasida Xamid Olimjonning “O‘zbekiston” she‘ri, Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she‘ri, Ozodbek Nazarovbekovning “Mendirman” qo‘shig‘i, Sohibqiron Amir Temurning “Kuch-adolatda” (forsiyda “Rostiy-rustiy”), shiorlarining mazmun va mohiyatini tushuntirib berishning o‘zi kifoyadir.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta‘kidlash o‘rinliki, jamiyatimizning bugungi rivojlanish bosqichida pedagogik ta‘limda tarix fanini o‘qitish metodlarini toifalashda to‘plangan tajriba va erishilgan ilmiy yutuqlardan keng qamrovli foydalanish imkoniyatini beradi. Boshlangan har bir ishimizdagi sifat va samara aynan shu masala bilan chambaras bog‘liqligini rivojlangan mamlakatlar tajribasi va qolaversa hayotning yozi yaqqol ko‘rsatib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - B.27

2. T. Toshpo'latov, Y. G'afforov. "Tarix o'qitish metodikasi". Darslik. Toshkent-2016.
3. A. Sagdiev, G. Fuzailova, M. Xasanova, "Tarix o'qitish metodikasi". Toshkent. 2008. yil
4. Toshtemirova Saodat Abdurashidovna. Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. -2020.- № 1 (86). B.5
5. Tarix o'qitish metodikasi . Toshkent, 2005 yil
6. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
7. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
8. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
9. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.